

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING AYRIM QARORLARIGA
O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH, SHUNINGDEK, BA‘ZILARINI O‘Z
KUCHINI YO‘QOTGAN DEB HISOBLASH TO‘G‘RISIDA (O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “JAMIYATDA IJTIMOY-MA’NAVIY MUHITNI
SOG‘LOMLASHTIRISH, MAHALLA INSTITUTINI YANADA QO‘LLAB-QUVVATLASH
HAMDA OILA VA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI YANGI DARAJAGA
OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” 2020-YIL 18-FEVRALDAGI PF-
5938-SON FARMONI)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son **Farmoni** ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **1-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ba’zi qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev hamda O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri R.T. Mamatov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 19-iyun,
391-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-iyundagi 391-son qaroriga
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va
qo‘shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 7-oktabrdagi 274-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2013-y., 10-son, 72-modda) bilan tasdiqlangan Fuqarolar yig‘inining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risidagi namunaviy **nizomda**:

a) **5-bandga** quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Davlat ekologiya qo‘mitasi inspektorlari bilan birgalikda hamda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etgan holda yashil dov-daraxtlarni sanitar qirqish va kesishda, shuningdek, ularni qayta ishlash va chiqindilarni utilizatsiya qilish, shu jumladan, yog‘ochlardan tijorat maqsadida foydalanishda ekologiya talablariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish”;

b) **to‘rtinchi — o‘n uchinchi xatboshilar** tegishlicha beshinchi — o‘n to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasining “Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishga doir namunaviy nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2015-yil 8-oktabrdagi 287-son **qarorida** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2015-y., 10-son, 91-modda):

a) Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom (1-ilova) ning **14-bandi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“14. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik ekologik nazorat bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalari, tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi”;

b) Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to'g'risidagi namunaviy nizom (2-ilova) ning 3-bandi **ikkinchi xatboshisidagi** “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi” so'zlari “Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2016-yil 7-oktabrdagi 336-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2016-y., 10-son, 99-modda) **1-ilovada**:

a) quyidagi mazmundagi 28⁶-band qo'shilsin:

“28⁶. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi”.

4. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 940-son qarori bilan tasdiqlangan Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirishga doir kompleks chora-tadbirlar **dasturining** 1 — 7, 9 — 11, 13 va 14-pozitsiyalari “Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Respublika mahallalar kengashi” so'zlari “Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1013-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 12-son, 299-modda) bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar matnlari hamda zarur bo'lgan taqdirda ularga tegishli axborot-tahliliy materiallar elektron shaklda yuboriladigan davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ro'yxatining “2. Vazirliklar” **bo'limiga** quyidagi mazmundagi 22-band qo'shilsin:

“22. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi”.

6. Vazirlar Mahkamasining “Yo'lovchi avtotransportida favqulodda vaziyatlar profilaktikasi va ularning oldini olish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga doir shoshilinch chora-tadbirlar to'g'risida” 2018-yil 23-yanvardagi 42-son **qarorida**:

a) **3-banddagi** “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi” so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) **1-ilovadagi** “Javlonov Sh.S. — Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi raisining birinchi o'rinbosari” so'zlari “Mamatov R.T. — O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri” so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 2-ilovaning **12-bandidagi** “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi” so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining “Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 15-fevraldagi 117-son qarorining **4-bandidagi** “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga” so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligiga” so'zlari bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 137-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2018-y., 2-son, 45-modda) bilan tasdiqlangan Biriktirilgan hududda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi **nizomda**:

a) 4-banddagi “Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasida” soʻzlari “Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalarida” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) 5-bandda:

ikkinchi va uchinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“rais — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari;

rais oʻrinbosarlari — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining jinoyat qidiruv boshqarmalari va huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari boshliqlari”;

oltinchi xatboshidagi “yoshlar masalalari boʻyicha oʻrinbosarlari — huquqbuzarliklar profilaktikasi boʻlimlari (boʻlinmalari) boshliqlari” soʻzlari “huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari boʻyicha oʻrinbosarlari” soʻzlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“komissiya kotibi — Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining tashkiliy-inspektorlik va axborot-tahlil boshqarmalari boshliqlari”;

v) 17-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“17. Qoraqalpogʻiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining bir martalik pul ushlanishlarini va mukofotlarni qoʻllash toʻgʻrisidagi buyruqlari komissiyalar xulosalari asosida hisobot choragidan keyingi oyning 30-kunidan kech boʻlmagan muddatda qabul qilinadi”;

g) 19-banddagi “Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining oʻrinbosari — Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi boshligʻi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari” soʻzlari “Qoraqalpogʻiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari” soʻzlari bilan almashtirilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(9-band Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 210-sonli qaroriga asosan oʻz kuchini yoʻqotgan — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 14.04.2021-y., 09/21/210/0326-son)

10. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-martdagi 205-son qarori bilan tasdiqlangan Dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi toʻgʻrisidagi **nizomda**:

a) 4-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha tuman kengashi” soʻzlari “Tuman mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boʻlimi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) 2 va 3-ilovalardagi “Javlonov Sh.S. — Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika kengashi raisining birinchi oʻrinbosari” soʻzlari “Mamatov R.T. — Oʻzbekiston Respublikasi mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vaziri” soʻzlari bilan almashtirilsin.

11. Vazirlar Mahkamasining ““Moʻtabar ayol” koʻkrak nishonini taʼsis etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018-yil 2-apreldagi 257-son **qarorida** (Oʻzbekiston Respublikasi QT, 2018-y., 4-son, 74-modda):

a) 2-banddagi “Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi Boshqaruvining” soʻzlari “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi Hayʼatining” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) 4-banddagi “Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasining” soʻzlari “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligining” soʻzlari bilan almashtirilsin;

v) 7-banddagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari — Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi raisi T.K. Narbayeva” soʻzlari “Vazirlar Mahkamasining Mahalla, oila va yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, madaniyat, maʼnaviyat va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyati hamda

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri R.T. Mamatov” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) “Mo‘‘tabar ayol” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizom (1-ilova) da:

2-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“2. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlashga oid dastlabki takliflar O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlari, fuqarolar yig‘ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma‘naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi tomonidan shakllantiriladi va tegishli yig‘ilish qarorlari asosida har yili 10-yanvarga qadar tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga taqdim etiladi”;

3-banddagi “xotin-qizlar qo‘mitalari” so‘zlari “mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari” so‘zlari bilan, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo‘mitalariga” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalariga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo‘mitalari” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari” so‘zlari bilan, “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasiga” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

5-bandda:

birinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi Boshqaruvi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi Hay‘ati” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi Boshqaruvining” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi Hay‘atining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-banddagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-banddagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) “Mo‘‘tabar ayol” ko‘krak nishoni guvohnomasining tavsifi (3-ilova) da:

to‘qqizinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani” so‘zlari bilan, “qo‘mitasi Boshqaruvining” so‘zlari “qo‘llab-quvvatlash vazirligi Hay‘atining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o‘n ikkinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani” so‘zlari bilan, “qo‘mitasi raisi” so‘zlari “qo‘llab-quvvatlash vaziri” so‘zlari bilan almashtirilsin.

12. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 285-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2018-y., 4-son, 90-modda) bilan tasdiqlangan Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 10-bandning “i”-kichik bandidagi “xotin-qizlar qo‘mitasi” so‘zlari “mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 19-banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat xotin-qizlar qo‘mitalariga” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalariga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 20-banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo‘mitalari” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari” so‘zlari bilan,

“O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasiga” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) **21-banddagi** “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) **23-banddagi** “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) **24-banddagi** “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

13. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar yig‘ini huzuridagi “ota-onalar universiteti” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi 554-son **qarorida** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2018-y., 7-son, 186-modda):

a) **4-bandda:**

birinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi ijro apparati bilan birgalikda” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlar” so‘zlari “Tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **8-banddagi** “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi T.K. Narbayeva” so‘zlari “Vazirlar Mahkamasining Mahalla, oila va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, madaniyat, ma‘naviyat va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyati hamda O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri R.T. Mamatov” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) **ilovada:**

10-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitasining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis” so‘zlari “fuqarolar yig‘ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma‘naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

27-banddagi “xotin-qizlar qo‘mitalari” so‘zlari “mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

14. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar yig‘inlarida sportning futbol turini yanada rivojlantirish hamda fuqarolar yig‘inlari raislarining o‘rinbosarlari — yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchilarni moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-avgustdagi 688-son **qarorida:**

a) **qarorning nomi, muqaddima, 3-bandning to‘rtinchi xatboshisidan** “o‘rinbosarlari” so‘zi chiqarib tashlansin;

b) **1-ilovaning 4, 10 va 12-pozitsiyalari** “Mas‘ul bajaruvchilar” ustunidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) **3-ilovada:**

nomi, 1, 3-bandlaridan “o‘rinbosarlari” so‘zi chiqarib tashlansin;

10 va 11-bandlardagi “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

Mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining o'rinbosarlari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom (3-ilova) da:

1-ilovada:

ilova belgisi va nomidan “o'rinbosarlari” so'zi chiqarib tashlansin;

3 va 4-bloklarning “Tadbirlar nomi” ustunidagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari” so'zlari “Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalari” so'zlari bilan almashtirilsin;

2-ilovada:

ilova belgisi va nomidan “o'rinbosarlari” so'zi chiqarib tashlansin;

Fuqarolar yig'inlari raislarining o'rinbosarlari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarning faoliyatini baholash va moddiy rag'batlantirish bo'yicha komissiyaning namunaviy tarkibidagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tuman (shahar) kengashi raisining birinchi o'rinbosari” so'zlari “Tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i” so'zlari bilan almashtirilsin.

15. Vazirlar Mahkamasining “Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son qaroriga 2-ilovada:

2 va 4-pozitsiyalarning “Mas'ullar” ustunidagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi” so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zi bilan almashtirilsin;

2 va 4-pozitsiyalarning “Mas'ullar” ustunidagi “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi” so'zlari chiqarib tashlansin.

16. Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son qarorida:

a) 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga 1-ilovaning 1.1 — 1.3 va 3.7-bandlari “Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi” so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 2-ilovadagi “Sh.S. Javlonov — Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi raisining birinchi o'rinbosari” so'zlari “R.T. Mamatov — O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri” so'zlari bilan almashtirilsin.

17. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekistonda sportning ommaviyligini yanada oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 10 va 14-pozitsiyalari “Ijro uchun mas'ullar” ustunidagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi” so'zlari “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin.

18. Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2019-yil 26-martdagi 251-son qarorida:

a) Profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom (1-ilova) da:

3-bandning oltinchi xatboshisidan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi” so'zlari chiqarib tashlansin;

4-bandning “d” kichik bandi birinchi va ikkinchi xatboshilaridan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi” so'zlari chiqarib tashlansin;

8-bandning birinchi xatboshisidagi “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasining alohida o'rnak ko'rsatgan” so'zlari chiqarib tashlansin;

11-banddan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi a’zolari” so’zlari chiqarib tashlansin;
14-bandning to’rtinchi xatboshisidan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi” so’zlari chiqarib tashlansin;

b) Profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo’yicha yordamchilarining kvota asosida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalariga, shu jumladan kasbiy tayyorgarlik fakultetiga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risidagi nizom (2-ilova) da:

3-bandning to’rtinchi xatboshisidan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi” so’zlari chiqarib tashlansin.

19. Vazirlar Mahkamasining “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini idoralararo elektron o‘zaro hamkorlikni qo‘llagan holda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-apreldagi 308-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2019-y., 4-son, 64-modda):

a) 2-ilovaning 5-bandidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha respublika kengashi” so’zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so’zlari bilan almashtirilsin;

b) 4-ilovaning 9 va 12-pozitsiyalari “Mas’ul ijrochilar” ustunidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha respublika kengashi” so’zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so’zlari bilan almashtirilsin.

20. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalq salomatligi milliy kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 15-maydagi 409-son qaroriga 1-ilovadagi “Sh.S. Javlonov — Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha Respublika kengashi boshqaruvi raisi” so’zlari “R.T. Mamatov — O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri” so’zlari bilan almashtirilsin.

21. Vazirlar Mahkamasining “Rahbarlari xodimlarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilish to‘g‘risida iltimosnoma kiritishi mumkin bo‘lgan davlat hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari ro‘yxatiga qo‘shimcha kiritish haqida” 2019-yil 8-iyundagi 475-son qarorining (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2019-y., 6-son, 123-modda) 1-bandi ikkinchi xatboshisidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha respublika kengashi” so’zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so’zlari bilan almashtirilsin.

22. Vazirlar Mahkamasining “Buxoro viloyatini xotin-qizlar bilan ishlash yo‘nalishida namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 14-iyundagi 495-son qaroriga 1-ilovaning 3, 6, 8, 14,15, 17,18 va 25-pozitsiyalari “Mas’ul ijrochilar” ustunidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini Muvofiqlashtirish bo’yicha respublika kengashi” so’zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so’zlari bilan almashtirilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son)

24. Vazirlar Mahkamasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 30 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 17-iyuldagi 597-son qaroriga ilovaning 2-pozitsiyasi “Mas’ul ijrochilar” ustunidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha respublika kengashi” so’zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so’zlari bilan almashtirilsin.

25. Vazirlar Mahkamasining “2020-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida multiindikator klaster kuzatuvlarini o‘tkazish to‘g‘risida” 2019-yil 24-iyuldagi 625-son qarorida:

a) 9-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **1-ilovadagi** “Javlonov Sh.S. — Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari” so‘zlari “Mamatov R.T. — O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri” so‘zlari bilan almashtirilsin.

26. Vazirlar Mahkamasining “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 27-sentabrdagi 816-son **qarorida**:

a) **1-banddagi** “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi (keyingi o‘rinlarda Respublika kengashi deb ataladi)” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 5-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Respublika kengashi” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

v) Keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda ularning o‘rnini yanada oshirish hamda “Keksalar haftaligi”ni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (**1-ilova**) ning 8 — 15, 17 va 18-pozitsiyalari “Mas’ullar” ustunidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) “Keksalar maslahati” guruhlarini to‘g‘risidagi namunaviy nizom (**2-ilova**) da:

3-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika, hududiy (viloyat, tuman va shahar) kengashlar (keyingi o‘rinlarda respublika, hududiy kengashlar deb ataladi)” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, hududiy (viloyat, tuman (shahar)) bo‘limlar (keyingi o‘rinlarda — vazirlik, hududiy bo‘limlar)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

5-banddagi “respublika, hududiy kengashlar” so‘zlari “vazirlik, hududiy bo‘limlar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

17-banddagi “Respublika va hududiy kengashlarining” so‘zlari “Vazirlik va hududiy bo‘limlarining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

18-banddagi “hududiy kengashlar”, “hududiy kengashlarning”, “respublika kengashi” so‘zlari tegishli “hududiy bo‘limlar”, “hududiy bo‘limlarning”, “vazirlik” so‘zlari bilan almashtirilsin;

21-banddagi “respublika va hududiy kengashlar” so‘zlari “vazirlik va hududiy bo‘limlar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

22-banddagi “hududiy kengashlar” so‘zlari “hududiy bo‘limlar” so‘zlari bilan almashtirilsin.

27. Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 30-sentabrdagi 824-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2019-y., 9-son, 232-modda) **1-ilovaning** 10, 12 va 20-pozitsiyalari “Ijroga mas’ullar” ustunidagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

28. Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 20-noyabrdagi 919-son **qarorida**:

a) **6-banddagi** “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasiga” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **10-banddagi** “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi E.I. Basitxanova” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri R.T. Mamatov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Mahalla, oila va

yoshlarni qo'llab-quvvatlash, madaniyat, ma'naviyat va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyati" so'zlari bilan almashtirilsin.

29. Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qaroriga **2-ilovaning** 2 — 4, 9, 12, 48 — 52, 55, 57-58 va 61-pozitsiyalari "Ijro uchun mas'ullar" ustunidagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi" so'zlari "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin.

30. Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 4-yanvardagi 3-son **qarorida**:

a) Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risidagi nizom (**1-ilova**) da:

16-banddagi "(bo'limi)ning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (bo'linmasi, guruhi) (keyingi o'rinlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi deb ataladi) boshlig'ini" so'zlari "(bo'limi) boshlig'ining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosarini" so'zlari bilan almashtirilsin;

17-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"17. Tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'ining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosari himoya orderini rasmiylashtirish uchun to'plangan materiallarni o'rganib, taraflar fikrini eshitgan holda profilaktika inspektorining himoya orderini berish to'g'risidagi qarorini bekor qilishga haqli";

21-bandg "d"-kichik bandining **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"d) O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari";

b) Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risidagi nizom (**1-ilova**) ga **2-ilovada**:

4-bosqich pozitsiyasi "Subyektlar" ustunidagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i" so'zlari "Tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'ining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosari" so'zlari bilan almashtirilsin;

6-bosqich pozitsiyasi "Subyektlar" ustunidagi "Xotin-qizlar qo'mitasi hududiy bo'limlari" so'zlari "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) Tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tishi tartibi to'g'risidagi nizom (**2-ilova**) da:

5-banddagi "qo'mitalari" so'zi "masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlari" so'zlari bilan almashtirilsin;

8-banddagi "(bo'limi)ning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (bo'linmasi, guruhi) boshlig'i" so'zlari "(bo'limi) boshlig'ining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosari" so'zlari bilan almashtirilsin;

9-banddagi "xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassisga (keyingi o'rinlarda mutaxassis deb ataladi)" so'zlari "fuqarolar yig'ini raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosariga (keyingi o'rinlarda — fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari)" so'zlari bilan almashtirilsin;

11-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** "yarashtirish" so'zi "oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash" so'zlari bilan almashtirilsin;

12-bandning **birinchi xatboshisidagi** "Mutaxassis" so'zi "Fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari" so'zlari bilan almashtirilsin;

13-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “yarashtirish” soʻzi “oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” soʻzlari bilan, yettinchi xatboshisidagi “qoʻmitasi” soʻzi “masalalari boʻyicha boshlangʻich tashkilotlari” soʻzlari bilan almashtirilsin.

31. Vazirlar Mahkamasining “Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ehtiyojmand mehnat migrantlariga koʻp kvartirali uylardan xonadonlar ajratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 29-yanvardagi 39-son qarorining **4-bandidagi** “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika kengashi” soʻzlari “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

32. Vazirlar Mahkamasining “Dehqon xoʻjaliklari va aholi tomorqalari yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 30-yanvardagi 53-son **qarorida**:

a) 6-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika kengashi” soʻzlari “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) **10-banddagi** “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika kengashi” soʻzlari “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

v) **7-ilovaning** 2-3, 7 — 9 va 10-pozitsiyalari “Masʼul ijrochilar” ustunidagi Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha Respublika kengashi”, 6-pozitsiyasi “Masʼul ijrochilar” ustunidagi “Respublika mahalla kengashi” soʻzlari “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-iyundagi 391-son **qaroriga**
2-ILOVA

Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining oʻz kuchini yoʻqotgan deb eʼtirof etilayotgan qarorlari

ROʻYXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha respublika kengashini tashkil etish toʻgʻrisida” 2013-yil 30-sentabrdagi 267-son **qarori** (Oʻzbekiston Respublikasi QT, 2013-y., 9-son, 68-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlar fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻyicha hududiy kengashlarining namunaviy nizomlarini va tarkiblarini tasdiqlash toʻgʻrisida” 2013-yil 14-dekabrda 329-son **qarori** (Oʻzbekiston Respublikasi QT, 2013-y., 12-son, 93-modda).

3. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar yigʻinining masʼul kotibi faoliyatini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” 2017-yil 7-noyabrdagi 895-son **qarori**.

4. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrda 1013-son qarori (Oʻzbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 12-son, 299-modda) bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar matnlari hamda zarur boʻlgan taqdirda ularga tegishli axborot-tahliliy materiallar elektron shaklda yuboriladigan davlat organlari va boshqa tashkilotlarning roʻyxati “11. Nodavlat notijorat tashkilotlari” boʻlimining **2 va 3-bandlari**.

5. Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni va oilani qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” 2018-yil 14-martda 201-son qaroriga **1-ilovaning** 6-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar yigʻinining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini tubdan takomillashtirish haqida” 2018-yil 3-iyulda 497-son **qarori**.

(Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son, 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son; 14.04.2021-y., 09/21/210/0326-son)